



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIK OMILLARI

**Mambetaminov Nurlibay Mambetsapaevich**

Nukus davlat pedagogika insututi

E-mail: nurlibay19711@gmail.com,

+998906527575

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18413337>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 27-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 29-yanvar 2026 yil

### KEY WORDS

*boshlang'ich ta'lim, nutqiy savodxonlik, lingvistik kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, o'qish savodxonligi, badiiy matn, ijodiy yozma ishlar, kommunikativ kompetensiya.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy savodxonligi va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari kompetensiyaviy yondashuv asosida yoritilgan. Unda ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini integratsiyalash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, ijodiy faolligi hamda nutq madaniyatini shakllantirishning didaktik va metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy matnlar, grafik matnlar, audio va video materiallar asosida lingvistik resurslardan foydalanishning ta'lim samaradorligiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari nutqiy savodxonlikni rivojlantirishda ijodiy yozma ishlar, matn ustida ishlash va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muhim omil ekanini ko'rsatadi*

Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish o'quvchilarning o'qib tushunish, matn mazmunini anglash, mantiqiy xulosa chiqarish va o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda ravon ifodalash malakalarini shakllantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida badiiy matnlar, lingvistik resurslar, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash, yosh avlodni intellektual salohiyatli, jahon standartlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash bo'yicha keng qamrovli ishlar olip borilmoqda. Zero, kelajak avlod tarbiyasi barqaror taraqqiyotimizning asosiy garovidir.<sup>1</sup> Bu borada boshlang'ich sinflardan boshlab ona tili va o'qish savodxonligini shakllantirish shaxsga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish orqali rivojlantirishdek pedagogik muammo ijrosini ta'minlashda muhim omillardan hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirishning kompetensiyaviy modeli va metodikt ta'minotini takomillashtirish, didaktik xususiyatlarim aniqlashtirish misolida o'quv materiallarini o'qib tushunish, mazmun-mohiyatini anglash, umumlashma xulosalar chiqarish, o'zlashtirgan bilim-ko'nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida amaliyatda qo'llay olish malakasini talab

etadi. Bunga erishishda grafik matnlar, audio va video materiallari, xususan nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga doir bilimlar to'plamidan iborat kognitiv, kommunikativ, didaktik vositalar lingvistik resurslar tarkibini tashkil etadi. Ta'lim standarti va o'quv dasturi rejasiga muvofiq o'quvchilarning nutqiy savodxonligini ta'minlashga doir ijodiy yozma ishlar mavzusini belgilashda yosh xususiyatlari va bilim-ko'nikmalari darajasini hisobga olish ham boshlang'ich ta'limida lingvistik resurslarning zaruriy talablaridandir. Nutqiy savodxonlikning kompetensiyaviy, modelini ona tili va o'qish savodxonligi ta'limiga integrativ yondashuvning maqsad va vazifalari, natija va baholash komponentlarini fizimlashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi pedagogik faoliyatimiz davomida o'z tasdig'ini topdi

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://prezident.uz/sists/view/4057>

bilim-ko'nikmalarini innovatsion yondashuvlar asosida amaliyatda qo'llay olish malakasini talab etadi. Bunga erishishda grafik matnlar, audio va video materiallari, xususan nutqiy savodxonlikni rivojlantirishga doir bilimlar to'plamidan iborat kognitiv, kommunikativ, didaktik vositalar lingvistik resurslar tarkibini tashkil etadi. Ta'lim standarti va o'quv dasturi rejasiga muvofiq o'quvchilarning nutqiy savodxonligini ta'minlashga doir ijodiy yozma ishlar mavzusini belgilashda yosh xususiyatlari va bilim-ko'nikmalari darajasini hisobga olish ham boshlang'ich ta'limida lingvistik resurslarning zaruriy talablaridandir. Nutqiy savodxonlikning kompetensiyaviy, modelini ona tili va o'qish savodxonligi ta'limiga integrativ yondashuvning maqsad va vazifalari, natija va baholash komponentlarini fizimlashtirish ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qilishi pedagogik faoliyatimiz davomida o'z tasdig'ini topdi. O'quvchilarning nutqiy savodxonligi rivojida axborot-kommunikatsion kompetensiyasi muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, muloqot jarayonida tilning kommunikativ funktsiyasi, ma'lumot uzatishda esa axborot uzatish funktsiyasi amalga oshiriladi. Badiiy asar matni ustida ishlash davomida o'qituvchi darsning maqsadidan kelip chiqqan holda badiiy asarni tushunish, muallif ilgari surgan g'oyaning mohiyatini anglash, mantiqiy fikrlash, baholash yo'llarini bayon qilish orqali o'quvchilar hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi tafakkurini boyitadi.

„O'qish savodxonligi, - deb yozadi dotsent Hilola Bakiyeva, - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadirlanadigan yozma nutqni idrok etish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. O'qish savodxonligining maqsadi badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish; tushunish jarayonida esa diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni to'plash, xulosa chiqarish, g'oyalar va axborotlarni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tadqiq qilishda tarkib topadi.“<sup>1</sup>

1.Bakiyeva H. 4-sinf o'qish darslarda adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish. - Toshkent. Nodirabegim nashriyoti,2021.-6-bet. 148

Uning fikricha, badiiy asar matnini tushunish va baholash uchun har bir o'quvchi tilni tushunishi va bading tasvir vositalarini bilishi kerak. Zero, badiiy matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning lingvistik ko'nikmalarini rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli ona tili va o'qish savodxonligi ta'limi jarayonida mantiqiy fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.

“Badiy matnlar -deb yozadi tadqiqotchi U. Ulasheva – o'quvchilarda tilga nisbatan chuqur tushunchalarni shakllantirish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv madaniyatlararo muloqot qobiliyati rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida badiiy adabiyotdan metodik-didaktik

xususiyatlarini ishlab chiqish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim jarayonini tizimli ravishda tashkil qilish imkonini beradi"<sup>1</sup>

Fikrimizcha, o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish ona tili savodxonligi yoki o'qish savodxonligi darslarida mavzuga tegishli 1-2 ta mashg'ulotdagina amalga oshiriladigan, muammo emas. Buning uchun darsda o'quvchilar nutqida tilning kommunikativ, estetik va ekspressiv funksiyalariga ustuvorlik berish asosida izchillik, uzviylik, mantiqlik, aniqlik, stilistik differentsiatsiya, fanlararo integratsiya, pragmatik, tamoyillaridan foydalanish qobiliyatini egallashlari talab etiladi.

Pedagogik-psixologik adabiyotlarda nutqda voqelik aks etishi va u tafakkurning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida tilga olinadi. Shunga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasi muloqot vaziyatlariga mos og'zaki va yozma matn tuzishga oid lizoniy bilimlar va nutq ko'nikmalari darajasi bilan belgilanadi.

"Aytish joizki, nutq madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bilimdon, tarbiyali, ma'rifatli kishi muloqot jarayonida nutqdan yuqori darajada foydalanishini ko'rsata oladi. Insonning umumiy madaniy saviyasi qanchalik past bo'lsa, uning nutq madaniyati ham shu darajada bo'ladi."<sup>2</sup>

1.Ulasheva Umida Maxmadamin qizi. Badiiy adabiyot vositasida o'quvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Ped.fak.fal.dokt.diss.avto-ref. Chirchiq.2026.15-bet(58)

2.Masharipova U. A. Unnovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakillantirish metodikasi. Ped.fan. fal.dokt. - Toshkent : 2018. 12-bet. (34)

O'qtuvchi o'quvchilarning nutqiy savodxonligi, ijodiy ko'nikmalari va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish orqali o'z fikrlarini to'g'ri, ravon, aniq ifodalashlari uchun nutqni yangi so'zlar, tasirchan ifoda vositalari bilan boyitadi.

So'z gap va nutqning mantiqiy izchilligi ustida ishlash o'quvchilarning nutqiy savodxonligi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, barcha o'quv predmetlarini o'zlashtirishga mustahkam zamin yaratadi.

Mavzu yuzasidan olip brogan kuzatishlarimiz ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar nutqini rivojlantirishga quydagi maslalar yechimi asosida aksiologik yondashuv lingvistik resurslar kompleksini takomillashtirishning muhim omili bo'lishini ko'rsatadi.

1. O'quv matnini o'qib tushunish, mazmun-mohiyatini anglash, shaxsiy ijodiy munosabatni yozma va og'zaki tarzda bayon qilish.

2. Matndagi yetakchi g'oyani ikkinchi darajali g'oyalardan farqlash.

3. Lug'at ishi va matn mavzusiga tegishli mantiqiy mashqlar (obektlarning atributlarini ko'rsatadigan guruhlariga ajratish, o'quvchilarning mavjud lug'at boyliklarini taqqoslash, aniqlashtirish va boyitish).

4. Gap va jumla ustida ishlash (gaplarning tuzilishi, undagi so'zlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash).

5. Bog'lanishli nutq ustida ishlash, matn tarkibiy qismlari orasidagi izchillik, mantiqiy aloqadorlik.

6. Matnga reja tuzish, qisqartirib hikoyalash, shaxsini o'zgartirib hikoyalash.

7. Ijodiy bayon va insho yozish ko'nikmalarini rivojlantirish.

3-4-sinflarda o'quvchilarning darsliklardagi badiiy matnlar mazmuni yuzasidan reja tuzish, o'qituvchining yo'naltiruvchi savol-topshiriqlari asosida o'qiganlarini hayotiy voqea-

hodisalar bilan qiyoslash ko'nikmalarini shakllantirish ham nutqiy savodxonlik rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy savodxonligi va lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish uzluksiz, tizimli va integrativ yondashuvni talab etadi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlar bilan ishlash, ijodiy yozma ishlarni tashkil etish, matn mazmunini tahlil qilish hamda kommunikativ vaziyatlar yaratish o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, lingvistik resurslardan kompleks foydalanish, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulotlarni tashkil etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Tadqiqot natijalari nutqiy savodxonlikni shakllantirish boshlang'ich ta'limning barcha fanlarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishini tasdiqlaydi

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekiyeva H. 4-sinf o'qish darslarida adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish Toshkent: Nodirabegim. -2021 148-bet
2. Matchonov.S, G'ulomova X.,Suyunov M., Bakiyeva H. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. Toshkent. Yangiyal poligraph service, 2008, 224-bet.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://prezident.uz/sists/view/4057>
4. Bakiyeva H. 4-sinf o'qish darslarda adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirish. -Toshkent. Nodirabegim nashriyoti,2021.-6-bet. 148
5. Ulasheva Umida Maxmadamin qizi. Badiiy adabiyot vositasida o'quvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish metodikasi. Ped.fak.fal.dokt.diss.avtoref. Chirchiq.2026.15-bet(58)
- 6.Masharipova U. A. Unnovatsion ta'lim sharoitida boshlangich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. Ped.fan. fal.dokt. - Toshkent : 2018. 12-bet. (34)